

KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA O`QUVCHILARDA BADIY- ESTETIKLIKNI RIVOJLANTIRISH

*Shodiyeva Xilola Murodullayevna
Osiyo Xalqaro Universiteti magistri*

Annotatsiya. Mazkur maqolada klasterli yondashuvning o`quvchilarda badiiy-estetiklikni shakllantirish va rivojlanirishdagi o`rni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Klasterli yondashuv zamonaviy ta`lim metodikalaridan biri sifatida o`quvchining dunyoqarashi, didi, estetik qobiliyatlarini chuqurlashtirishga xizmat qilishi ta`kidlanadi. Maqolada estetik tarbiyaning asosiy omillari, klaster tuzilmalari orqali adabiyot darslarini samarali tashkil etish usullari ham keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: klasterli yondashuv, badiiy-estetik tarbiya, o`quvchi shaxsini shakllantirish, adabiyot darsi, didaktik modellar, vizual tafakkur

KIRISH

Bugungi kunda ta`lim jarayonida o`quvchining fikrlash doirasini kengaytirish, ularni ongli, mustaqil qaror qabul qiluvchi, badiiy-estetik didga ega shaxs sifatida tarbiyalash zamonaviy pedagogikaning eng muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy-estetik tarbiya — o`quvchining nafaqat bilim darajasi, balki axloqiy-ruhiy holati, madaniy saviyasi va ijodiy salohiyatini shakllantirishda asosiy vositadir.

Ta`lim sohasida joriy etilayotgan innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar orasida klasterli yondashuv o`zining strukturaviy samaradorligi, vizual-fikriy tizimni shakllantirishi va o`quvchini faol subyektga aylantirish imkoniyati bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada aynan klasterli yondashuv orqali o`quvchilarda badiiy-estetiklikni qanday rivojlanirish mumkinligi tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Klaster (lotincha "cluster" – to‘plam, bog‘lama) — bu biror asosiy tushuncha atrofida uning mazmunini to‘ldiruvchi, mantiqan bog‘liq bo‘lgan g‘oyalar, tasavvurlar yoki obrazlarni guruhashdan iborat didaktik modeldir. Klasterli yondashuv o`quv materialini vizual ko‘rinishda tuzishga, asosiy g‘oyadan kelib chiqib turli tafsiliy elementlarni aniqlashga yordam beradi [1].

Ushbu yondashuv adabiyot darslarida qo‘llanilganda, o`quvchilar biror badiiy asarning asosiy g‘oyasini mustaqil aniqlash, personajlar xarakterini ochib berish, muallifning estetik pozitsiyasini tahlil qilish, badiiy til va ifoda vositalarini anglab yetishgaga faol jalb qilinadi. Klaster orqali mavzuni ko‘rib chiqish o`quvchining vizual xotirasini, analistik va sintezlovchi tafakkurini faollashtiradi.

Estetik tarbiya — bu o‘quvchining go‘zallikka munosabatini shakllantirish, san’at va adabiyot orqali uning ichki dunyosini boyitishdir. Badiiy-estetiklik nafaqat chiroqli obrazlarni ko‘ra olish, balki ularni tahlil qilish, baholash, ulardan zavq olish orqali hayotga estetik nigoh bilan qarashni o‘rgatadi.

Klasterli yondashuv estetik tushunchalarning tizimli tarzda anglanishiga imkon beradi. Masalan, “go‘zallik” tushunchasi markazga qo‘yilib, atrofida “tabiat”, “inson”, “asardagi obraz”, “muallifning tili”, “badiiy ifoda vositalari”, “musiqa”, “rang” kabi tushunchalar klaster shaklida joylashtiriladi. Bu esa o‘quvchining mavzuni chuqurroq idrok etishiga xizmat qiladi.

Adabiyot — bu o‘quvchining estetik tuyg‘ularini uyg‘otuvchi asosiy fanlardan biridir. Badiiy matn bilan ishslash jarayonida obrazlar dunyosiga kirib borish, voqealarni his etish, muallif pozitsiyasini tushunish o‘quvchining ruhiy-estetik rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Klasterli yondashuv bu jarayonda nafaqat vosita, balki ta’limning strukturaviy modeli sifatida foydalaniladi [2].

Misol uchun, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini tahlil qilishda asosiy klaster “vatanparvarlik” deb belgilansa, undan “insonlik”, “muhabbat”, “g‘amginlik”, “xalq taqdiri”, “sadoqat”, “fidoiylik” kabi tushunchalar tarmoq sifatida o‘sadi. Bu tarzda o‘quvchi nafaqat mazmunni o‘zlashtiradi, balki o‘z didi va tafakkurini boyitadi.

Zamonaviy o‘quvchilar axborotni ko‘proq vizual tasvirlar, grafikalar, rangli sxemalar orqali tezroq va samaraliroq qabul qilishga moyildir. Bu jihatdan qaralganda, klasterli yondashuv o‘quvchilarning vizual tafakkurini shakllantirishda va rivojlantirishda g‘oyat samarali vosita bo‘la oladi. Ayniqsa, badiiy-estetiklikni rivojlantirish jarayonida obraz, detal, rang, kompozitsiya, metafora, simvol, syujet, estetik baho kabi tushunchalarni bir-biri bilan mantiqiy, ma’naviy, g‘oyaviy jihatdan bog‘lash, ularning o‘zaro ichki aloqadorligini topish o‘quvchilarning tahliliy tafakkurini, tasavvur doirasini va san’atga nisbatan estetik munosabatini kengaytiradi [3].

Klaster tuzilmasi orqali badiiy matnni tahlil qilishda o‘quvchi faqat matn mazmuni bilan cheklanmaydi, balki u muallifning badiiy niyatini, g‘oya-estetik izlanishlarini, ruhiy holat va obrazlar timsolidagi umumlashmalarni anglashga harakat qiladi. Masalan, bir she’r klasterga joylashtirilganda, uning markaziy obraziga (diydor, muhabbat, yurt, onajon, bahor) asoslanib, atrofida shu obraz bilan bog‘liq badiiy vositalar (epitet, tashbeh, metafora), ruhiy holatlar (sog‘inch, shodlik, ma’yuslik), syujet unsurlari (vaziyat, voqeа, hodisa), va estetik mezonlar (go‘zallik, soddalik, samimiyat) klaster shaklida joylashtiriladi.

Bu jarayon, o‘z navbatida, o‘quvchida badiiy tafakkurni mustahkamlab, ularda san’at asarlariga nisbatan tahliliy yondashuv shakllanishiga xizmat qiladi. Vizual klaster orqali tahlil qilingan badiiy asar o‘quvchining nafaqat bilimini, balki uning

ruhiy-estetik dunyosini ham boyitadi. Eng muhimi, bu usul o‘quvchini passiv tinglovchilikdan faol tahlilchi va baholovchi bosqichiga olib chiqadi. Shu sababli, o‘quvchilarda badiiy-estetiklikni shakllantirishda klasterli yondashuvni nafaqat metodik vosita, balki dunyoni badiiy-anglash yo‘li sifatida ham qarash lozim [4].

XULOSA VA MUNOZARA

Klasterli yondashuv asosida o‘quvchilarda badiiy-estetiklikni rivojlantirish — bu nafaqat zamonaviy metodik talab, balki shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning zaruriy jihatlaridan biridir. Ushbu yondashuv o‘quvchini o‘z fikrini mustaqil shakllantirishga, estetik his qilishga, badiiy matnga chuqur kirib borishga o‘rgatadi. Ta’limda klasterdan foydalanish estetik tarbiyani izchil, tizimli va ta’sirchan olib borish imkonini yaratadi.

Kelajakda ushbu yondashuv asosida darsliklar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar va interaktiv resurslar ishlab chiqilishi o‘quvchilarning estetik dunyoqarashini kengaytirishda katta ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Jalolov J. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. — Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
2. Ermatov T., Rasulova M. Adabiy-estetik tarbiya va zamonaviy ta’lim. — Samarqand, 2018.
3. Ashurova D. Klasterli yondashuvning lingvodidaktik imkoniyatlari. // Filologiya masalalari. — 2021. — №2.
4. Xasanov Sh. Adabiyot darslarida badiiy tafakkurni shakllantirish yo‘llari. — Toshkent: Fan, 2019.